

TURKIY ADABIYOT TARIXIDA YUSUF A.S. OBRAZI

Muratova Aziza Kamilovna

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO 'TAU doktoranti

azizamuratova3141@gmail.com

Annotatsiya

Maqola Yusuf a.s. obrazining Turkiy adabiyotdagi badiiy talqinini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu obraz, diniy va axloqiy qadriyatlar, insoniylik ideallari va badiiy ifodalarning uyg'unligini aks ettiradi. Maqolada Yusuf a.s. haqidagi hikoyaning Qur'on, Tavrot va Injilda qanday talqin qilinishi, shuningdek, xalq og'zaki ijodi va turkiy mumtoz adabiyotdagi o'rni ko'rsatilgan. Yusuf a.s. siymosi nafaqat diniy, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni ham ifodalovchi muhim obraz sifatida tahlil qilinadi. "Yusuf va Zulayho" dostonlaridagi Yusuf obrazining sevgi, sabr, sadoqat kabi fazilatlari orqali milliy va madaniy qadriyatlarni targ'ib qilinadi. Shuningdek, maqolada Yusuf a.s. obrazining turkiy adabiyotdagi dastlabki badiiy talqinlari va uning keyingi davr adabiyotiga ta'siri haqida ham ma'lumot berilgan. Maqola Turkiy adabiyotda Yusuf a.s. obrazining ahamiyatini, uning din, madaniyat va axloqiy qadriyatlarni ramzi sifatida o'ziga xosligini yoritadi.

Kalit so'zlar: Yusuf a.s. obrazi, Badiiy talqin, Turkiy adabiyot, Xalq og'zaki ijodi, "Yusuf va Zulayho" dostonlari, turkiy mumtoz adabiyot.

THE IMAGE OF YUSUF AS IN THE HISTORY OF TURKISH LITERATURE

Annotation

The article is aimed at analyzing the artistic interpretation of the image of Yusuf AS in Turkish literature. This image reflects the harmony of religious and

moral values, human ideals and artistic expressions. The article shows how the story of Yusuf AS is interpreted in the Quran, Torah and Gospel, as well as its place in folk oral literature and Turkish classical literature. The image of Yusuf AS is analyzed as an important image that represents not only religious, but also social and moral values. National and cultural values are promoted through the qualities of the image of Yusuf AS in the epics "Yusuf and Zulayha" such as love, patience, loyalty. The article also provides information about the initial artistic interpretations of the image of Yusuf AS in Turkish literature and its influence on the literature of the later period. The article illuminates the importance of the image of Yusuf, its uniqueness as a symbol of religion, culture and moral values.

Keywords: Image of Yusuf a.s., Artistic interpretation, Turkic literature, Folk oral art, epics "Yusuf and Zulayha", Turkish classical literature.

Turkiy adabiyot tarixida Yusuf a.s. obrazi diniy va axloqiy qadriyatlar, insoniylik ideallari va badiiy talqinlarning noyob uyg'unligini aks ettiruvchi mavzulardan biri bo'lib, uning o'rganilishi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega. Yusuf a.s. haqidagi hikoya Islom olamining eng muhim manbasi bo'lgan Qur'onda batafsil yoritilgan bo'lib, Yusuf surasida bu qissaga alohida o'rin ajratilgan. Yusuf a.s. obrazi faqat Qur'on bilan cheklanib qolmay, balki Islomdan oldingi davrlardagi yahudiy va nasroniy manbalarda ham uchraydi. Yahudiylarning Tavroti va nasroniy larning Bibliyasida Yusuf a.s. haqidagi hikoyalar Islomiy talqin bilan ma'lum darajada bog'liqdir, ammo bu manbalardagi farqlar diniy dunyoqarashlarning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Islomiy manbalarda Yusuf a.s. siymosi Allohning irodasini amalga oshiruvchi, to'g'ri yo'lni tanlashda qat'iyatli bo'lgan payg'ambar sifatida tasvirlansa, boshqa diniy manbalarda u ko'proq insoniy fazilatlari bilan ajralib turadi. Bu jihat Yusuf a.s. siymosining turli madaniyatlarda qanday qabul qilinganini o'rganish uchun katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Yusuf a.s. haqidagi hikoyalar xalq og'zaki ijodida ham alohida o'rin egallaydi. Turkiy xalqlarning og'zaki ijodida Yusuf a.s.

haqidagi qissalar ko‘pincha axloqiy-tarbiyaviy mazmunda bo‘lib, ular orqali sabr, sadoqat,adolat va halollik kabi qadriyatlar targ‘ib qilinadi. Masalan, xalq orasida mashhur bo‘lgan "Yusuf va Zulayho" dostonlari Yusuf a.s. siymosini sevgi va muhabbat ramzi sifatida yoritadi [Muratova, 2024: 120]. Ushbu dostonlar turkiy adabiyotning rivojlanishida katta rol o‘ynab, mumtoz shoirlar ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Turkiy adabiyotda Yusuf a.s. obrazi o‘zining chuqur ma’nomazmuni, sabr va sadoqat kabi fazilatlarni ulug‘lash orqali milliy va madaniy qadriyatlar ramziga aylangan. Yusuf va Zulayho haqidagi rivoyatlar asosida Firdavsiy (X-XI asr), Baxtiyoriy (X asr), Shiod Hamza (XIII), Ali (XIII asr), Suli Faqix (XIII), Shahobiddin Oshiq (XIV), Rabg‘uziy (XIV), Dariy (XIV), Durbek (XV), A. Jomiy (XV), Navoiy (XV), H.H. Chalabiy (XV), Nozim Xiraviy (XVII), Hoziq (XIX) va yana boshqa ko‘pgina fors-tojik, o‘zbek, turk, ozarbayjon shoirlari dostonlar yaratganlar. Dostonlarda har bir shoir o‘z davrining muhim voqealari, axloqiy va falsafiy qarashlarini aks ettirishga intilganlar. Masalan, Durbekning “Yusuf va Zulayho” dostonida shaharning qamal qilinish kartinasining berilishi, shuningdek dostonlarda Yusuf obrazining talqini ham turlicha. Yusuf haqidagi ilk dostonlarda Yusuf va Zulayho ilohiy obraz markazida tasvirlansa (masalan Yusuf va Zulayhoning qayta yosharishi), keyinchalik Yusuf va Zulayho muhabbati dunyoviy talqin qilina boshlandi. Durbek va Abdurahmon Jomiy dostonlarida bosh qahramonlar tarixiy shaxs, Zulayhoni go‘zal qiz sifatida tasvirlaganlar. Bundan tashqari Yusuf obrazining o‘ziga xos o‘zgacha talqinini turk shoiri Hamidulla Hamdi Chalabiyning ijodida ham kuzatishimiz mumkin. Hamidulla Hamdi Chalabiy o‘zining “Xamsa” asarining birinchi dostoni sifatida “Yusuf va Zulayho” dostonini yozadi. “Yusuf va Zulayho” dostoni 1491–92 yillarda yozib tugatilgan. Bu dostonni “Xamsa”ning birinchi asari qilib olishni shoir o‘z taqdiri ham Yusuf taqdiriga o‘xshab ketganligi uchunligini aytadi. Hamdi o‘z dostonini yozishda mashhur tojik shoiri A. Jomiyning “Yusuf va Zulayho”siga suyangan. Yusuf obrazi sharq adabiyotida keng tarqalgan obrazdir. Bu obraz dastlab “Tavrot” va “Injil”da, so‘ngra “Qur’on”da o‘z ifodasini topgan.

Xalq og‘zaki ijodi va yozma adabiyotda Yusuf nihoyatda go‘zal, olijanob, dono shaxs sifatida tasvirlanadi [Muratova, 2023: 121].

Najmaddin Kubro va uning izdoshlari ijodida ham Yusuf a.s. siymosi badiiy va ramziy talqin etilgan. Najmaddin Kubro o‘z tasavvufiy qarashlarida Yusuf a.s. qissasini insonning botiniy kechinmalari va ruhiy o‘sish jarayonining timsoli sifatida yoritgan. Uning qarashlariga ko‘ra, Yusuf a.s.ning turli sinovlardan o‘tib, oliv maqomga erishishi inson hayotidagi sinovlarning ma’nosini anglash va ulardan saboq olishda muhim ramziy ma’no kasb etadi. So‘fiylik adabiyotida Yusuf a.s. obrazi orqali sevgi va muhabbat tushunchasi, ilohiy sevgi va insoniy intilishlar uyg‘unligi yuksak badiiy ifodaga ega bo‘lgan. Turkiy xalqlarning ilk adabiy asarlarida Yusuf a.s. siymosining badiiy talqinida milliy va madaniy xususiyatlar ham aks etgan. Ushbu asarlar orqali Yusuf a.s. siymosi faqat diniy obraz bo‘lib qolmay, balki o‘z davrining ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi vositaga aylangan. Ilk Turkiy yozuvlarda bu obraz qahramonlik, sadoqat vaadolat ramzi sifatida tasvirlangan bo‘lib, o‘quvchini ma’naviy poklikka va adolatparvarlikka chaqirgan. Yusuf a.s. siymosining Turkiy adabiyotdagagi ilk talqinlari shu jihat bilan alohida ajralib turadiki, bu davrda obrazning diniy mazmuni estetik ifoda vositalari bilan boyitilib, keng ommaning e’tiboriga havola qilingan. Ushbu davr shoir va yozuvchilari Yusuf a.s. obrazidan ilhomlanib, insonning axloqiy va ruhiy o‘sishiga xizmat qiluvchi asarlar yaratganlar. Yusuf a.s.ning obrazida uyg‘unlashgan go‘zallik va sabr fazilatlari turkiy adabiyotning o‘ziga xos qirralarini shakllantirib, diniy va badiiy qadriyatlarning birlashgan ifodasi sifatida maydonga chiqqan. Bu obraz keyingi davrlar adabiyotida ham o‘zining axloqiy va estetik ahamiyatini saqlab qolgani bilan ulkan madaniy merosning asosi hisoblanadi [Quronov, 2010: 242].

Klassik Turkiy adabiyotda Yusuf a.s. siymosining badiiy talqini ko‘proq ikki asosiy jihatdan yuzaga chiqqan: biri — Yusuf a.s.ning o‘zi, ya’ni uning ma’naviy va ruhiy kechinmalari, ikkinchisi esa, uning atrofidagi voqealar, xususan, Yusuf va Zulayho hikoyasi. Yusuf a.s.ning go‘zalligi, to‘g‘riligi va sabri

adabiyotda uning ilohiy hikmatlar va insoniy fazilatlar bilan uyg‘unligini ko‘rsatadi. Klassik Turkiy adabiyotda Yusuf a.s. obrazi ko‘pincha so‘fiylik qarashlarida aks etgan va bu obraz ilohiy sevgi, ma’naviy izlanish, to‘g‘rilik vaadolat ramzi sifatida talqin qilingan. Birinchi navbatda, Yusuf a.s.ning obrazi turkiy mumtoz adabiyotining buyuk shoirlaridan biri bo‘lgan Fuzuliy ijodida yuksak badiiy ifodaga ega bo‘lgan. Fuzuliy o‘zining mashhur asari "Layli va Majnun"da va boshqa dostonlarida Yusuf a.s.ning tasvirini qo‘llab, uning obrazini sevgi va muhabbat ramzi sifatida talqin qilgan. Fuzuliy uchun Yusuf a.s. obrazining go‘zalligi va ehtirosga to‘la kechinmalari juda muhimdir, chunki u insonning ilohiy muhabbatga intilishi, ruhiy poklanishi va haqiqiy sevgi izlanishini ifodalovchi kuchli ramz bo‘lib qolgan. Fuzuliyning she’riyatida Yusuf a.s.ning Zulayhoga bo‘lgan muhabbati, ular orasidagi tug‘ma aloqalar va sinovlar, nihoyat, Allohning iroda va hukmiga to‘liq bo‘ysunish o‘ziga xos ma’naviy qadriyatlar va axloqiy saboqlarga aylangan. Shuningdek, Yunus Emre kabi turk so‘fiy shoirlari ham Yusuf a.s. obrazi orqali ilohiy sevgi va ruhiy kamolotni talqin qilganlar. Yunus Emre Yusuf a.s. qissasini ruhiy poklanish va Allohga bo‘lgan muhabbatga intilishning ramzi sifatida ko‘rib, o‘zining sherkari va g‘azallarida bu obrazni ideal sifatida yoritgan. Uning she’riyatida Yusuf a.s. o‘zining ilohiy go‘zalligi bilan birga, insonning ruhi, qalbi va ma’naviyatining o‘sishiga xizmat qiluvchi kuchli timsolga aylangan. Yunus Emre shuningdek, Yusuf a.s.ning zulmga qarshi chidamliligi va sabrini, uni sinovlar orqali poklanib, haqiqiy ma’naviy yuksalishga erishganligini ko‘rsatgan. Klassik Turkiy adabiyotda Yusuf a.s. siymosi ko‘plab dostonlar va she’rlarning markazida bo‘lgan. Masalan, turkiy xalq og‘zaki ijodida "Yusuf va Zulayho" dostonlari mashhur bo‘lib, bu asarlarda Yusuf a.s.ning Zulayho bilan bo‘lgan sevgi munosabatlari, uning xiyonat va sinovlardan o‘tib, poklik va sabrga erishishi tasvirlangan. Bu dostonlar nafaqat adabiy, balki axloqiy ma’ruza sifatida ham xizmat qilgan. Xalq og‘zaki ijodida Yusuf a.s. obrazi sevgi, sadoqat va halollik ramzi sifatida talqin qilingan va bu uning insonlar orasidagi qadriyatlarni targ‘ib qilishdagi rolini yanada

kuchaytirgan. Klassik turkiy adabiyotda Yusuf a.s. siymosining aks ettirilishi uning faqat bir diniy obraz sifatida qabul qilinishi bilan cheklanib qolmasdan, u insoniyatning ma’naviy izlanishlarini, ichki poklanish jarayonlarini, to‘g‘rilik va sadoqatni ifodalovchi timsolga aylangan. Adabiyotning bu davrida Yusuf a.s. obrazi insonning o‘zini anglash, axloqiy poklanish va ruhiy yetuklik sari intilishining kuchli ifodasi bo‘lib, adabiyotdagi badiiy va diniy qarashlarning uyg‘unligini ta’minlagan. Bu obrazning klassik turkiy adabiyotdagi yuksak ifodasi, ayniqsa, sevgi, sadoqat va ma’naviy izlanishlarning tasvirida yana bir bor ko‘zga tashlanadi [Tohirov, 2001: 108].

Yusuf a.s. obrazi zamonaviy Turkiy adabiyotda yangi talqinlar va badiiy shakllar orqali yanada boyib, adabiyotning diniy, ma’naviy va ijtimoiy jihatlarini yorituvchi kuchli ramzga aylangan. O‘tmishdagi klassik adabiyotda ko‘rsatilgan Yusuf a.s. siy়mosi va uning ahloqiy fazilatlari zamonaviy adabiyotda yangicha nuqtai nazar va talqinlar bilan boyitilgan. Zamonaviy Turkiy adabiyotda bu obraz, bir tomondan, diniy-ma’naviy qadriyatlarni aks ettiruvchi timsol sifatida, boshqa tomondan, insonning o‘ziga xos ichki kurashlarini, ruhiy va ma’naviy izlanishlarini ifodalovchi zamonaviy figura sifatida ko‘rsatilgan. Zamonaviy adabiyotda Yusuf a.s. siy়mosi shunchaki tarixiy yoki diniy personaj bo‘lib qolmasdan, uni badiiy, psixologik va falsafiy jihatdan chuqur tahlil qilishga imkon yaratilgan [Muratova, 2023: 121].

Zamonaviy adabiyotda Yusuf a.s. siy়mosining talqinida asosan uchta muhim yo‘nalish ko‘zga tashlanadi, bular: Yusuf a.s.ning ijtimoiy, psixologik va ma’naviy aspektlari. Badiiy nuqtai nazardan, zamonaviy shoirlar va yozuvchilar Yusuf a.s.ni nafaqat diniy va axloqiy sifatlarning timsoli sifatida, balki uning ichki kurashlari va insonning psixologik jihatlari orqali ham tasvirlaydilar. Bu esa adabiyotda uning obrazini yanada jonli, real va zamonaviy qilishga imkon beradi. Birinchi o‘rinda Yusuf a.s. siy়mosining zamonaviy badiiy talqinlarida psixologik tahlil va ichki qarama-qarshiliklar muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy Turkiy adabiyotda Yusuf a.s.ning obrazini faqatgina Allohning tanlagan, pok va

mukammal insoni sifatida emas, balki uning o‘zining ichki qarama-qarshiliklari va shaxsiy izlanishlari orqali tasvirlashga harakat qilinadi. Bu asarlar orqali Yusuf a.s.ning sabr va to‘g‘rilikdan tashqari, uning his-tuyg‘ulari, kuchli va zaif tomonlari ham ko‘rsatilgan. Bu talqinlar orqali adabiyotda Yusuf a.s.ni juda insoniy, haqiqiy va hissiy obraz sifatida ko‘rish mumkin. Ushbu psixologik talqinlar Yusuf a.s.ning insoniy jihatlarini ochib beradi va uning barcha sinovlar orqali o‘zini anglash jarayonini aks ettiradi [Muratova, 2023: 121]. Ikkinchи jihat — bu Yusuf a.s.ning ijtimoiy jihatlari. Zamonaviy Turkiy adabiyotda Yusuf a.s.ning siymosi ko‘pincha ijtimoiyadolat, tenglik va halollik masalalariga alohida urg‘u berish orqali talqin qilinadi. Turkiy yozuvchi va shoirlar Yusuf a.s.ning taqdiri orqali jamiyatdagiadolatsizliklarni, o‘zaro ziddiyatlarni va insoniyatning ijtimoiy muammolarini yoritadilar. Bu obraz nafaqat diniy yoki ma’naviy poklikni ifodalovchi ramz sifatida, balki jamiyatdagi nohaqlik va zulmga qarshi kurashuvchi kuch sifatida ham qabul qilinadi. Yusuf a.s.ning Zulayho bilan munosabati, uning birodarlari tomonidan zulmga uchrashi va oxir-oqibatda barcha sinovlardan o‘tib, haqiqiyadolatga erishishi — zamonaviy adabiyotda o‘zgacha motivlar bilan ifoda etiladi. Zamonaviy turkiy adabiyotda Yusuf a.s. obrazi diniy va ma’naviy qadriyatlarning timsoli sifatida ham talqin qilinadi. Biroq bu talqinlar klassik davrga nisbatan yanada chuqurroq va kengroq ma’nolarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kun yozuvchilari va shoirlari Yusuf a.s.ning obrazini o‘z asarlarida faqatgina diniy bilimlarning tarbiyasini emas, balki insonning ichki poklanish va ruhiy o‘sishini aks ettiruvchi zamonaviy ma’nolar bilan boyitishga intilishadi. Misol uchun, Yusuf a.s.ning xiyonatga uchragan va ko‘plab sinovlardan o‘tganligiga qaramasdan, o‘zini saqlab qolganligi, Allohga bo‘lgan ishonchini yo‘qotmasligi — bu badiiy ifodalar, zamonaviy adabiyotda, hayotning qiyinchiliklariga qarshi kurashishda ma’naviy barqarorlikni, sabrni va diniy ishonchni saqlab qolishning muhimligini ko‘rsatadi. Adabiyotda uning obrazida diniy, ijtimoiy va psixologik talqinlar bir-biriga uyg‘unlashgan holda, o‘quvchini faqat ma’naviy o‘sishga undash emas, balki zamonaviy dunyoda

yashayotgan insonning ichki dunyosiga kirib borish va uning axloqiy, ruhiy yuksalishiga e’tibor qaratishga chaqiradi. Zamonaviy turkiy adabiyotda Yusuf a.s. siymosi hali ham adabiy yuksalish, ruhiy poklanish va insoniyatning o’zini anglash jarayonining ramzi bo‘lib qolmoqda. Bu obraz, zamonaviy yozuvchilarning tasavvurida, diniy va axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan holda, insoniyat uchun doimo yuksak fazilatlarni targ‘ib qilishda muhim vosita sifatida qolmoqda [Ochilov, 2011: 248].

Xulosa qilib aytganda, Yusuf a.s.ning obrazi Turkiy xalqlar madaniyatida, adabiyotida va san’atida o’zining muhim o’rnini saqlab qolgan va rivojlanib borgan. U faqatgina bir diniy siymo sifatida emas, balki ma’naviy yuksalishning,adolat va to‘g‘rilikning ramzi sifatida ham qadrlanadi. Uning obrazining adabiyot va madaniyatga ta’siri, uning o’tmishdagi va zamonaviy talqinlari orqali yuksalib, o‘z zamonining ijtimoiy, axloqiy va ma’naviy masalalarini o‘zida aks ettiradi. Yusuf a.s.ning hayoti va uning hikoyasida aks etgan fazilatlar, butun turkiy xalqlarning umumiyligi qadriyatlarini, kelajak avlodlar uchun ruhiy va axloqiy yo‘l-yo‘riqni belgilovchi eng yuksak ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, ularning madaniy merosini davom ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muratova A.K. Alisher Navoiy ijodida Yusuf alayhissalom siymosining badiiy talqini, Nordic_Press: Tom 3 № 0003 (2024): Nordic Studies in Academic Research. –b 117-120.
2. Muratova, A. K. “Maorif va o‘qutg‘uchi” jurnalida zamondosh adiblar ijodining talqini. GOLDEN BRAIN, 1(9) (2023), -b 115-121.
3. Ochilov E. Bir hovuch dur. – T.: “O‘zbekiston”, 2011. –b 248.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2010. –b 242.
5. Tohirov Q. Xalq qissasi “Yusuf va Zulayho”ning matni va tadqiqi. – Sam.: 2001. –b 108.